

BROYLER JO'JALARI SAQLANADIGAN BINOLARNI TAYYORLASH

Xo'jaxonov Shoxruzxon Idirisxo'ja o'g'li
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar Universtiteti
Toshkent filiali mustaqil izlanuvchisi

Xo'jaxonova Moxinur Farxodjon qizi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar Universtiteti
Toshkent filiali talabasi

Davlatov Ravshan Berdievich
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar Universtiteti.
v.f.d, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1 kunlik jo'jalarni saqlash va parvarish qilishga mo'ljallangan parrandaxonalarni tayyorlash hamda amal qilinishi muhim hisoblanadigan zoogigiyenik talablar bo'yicha ma'lumotlar bayon qilingan.

Abstract. This article provides information on the preparation of poultry houses intended for keeping and caring for 1-day-old chicks, as well as zoohygienic requirements that are considered important to be followed.

Аннотация. В данной статье приведены сведения по подготовке птичников, предназначенных для содержания и ухода за 1-дневными цыплятами, а также зоогигиенические требования, соблюдение которых считается важным.

Kalit so'zlar: BKM-ZB, KP-8, to'shama, kalsiy gidroksid, perteid, neotsedol, mikroiklim, Nisbiy namlik, Yelvizak, Tunnelli ventilyatsiya tizimi.

Key words: BKM-ZB, KP-8, bedding, calcium hydroxide, pertheid, neocedol, microclimate, Relative humidity, Yelvizak, Tunnel ventilation system.

Ключевые слова: BKM-ЗБ, КП-8, подстилка, гидроксид кальция, пертеид, неоцедол, микроклимат, относительная влажность, Елвизак, система тоннельной вентиляции.

Kirish. Broylar jo'jalarini parvarishlash uchun mo'ljallangan parrandaxonalarni oldindan tayyorlash talab etiladi. Parrandaxona oldindan mexanik tozalanib, dezinfeksiyalovchi vositalar (kalsiy gidroksid, perteid, neotsedol) yordamida yo'riqnomaga asosan dezinfeksiya qilinadi. So'ngra 2-3 kun shamollatib, bino quritiladi. Parrandaxonalarda broylar jo'jalarini kataklarda yoki yerda saqlash mumkin. Broylarlarni kataklarda saqlash va boqish uchun BKM-ZB texnologik uskunalari va 3 yarusli KP-8 batareyalarini ishlatish mumkin. Broylarlarni kataklarda saqlashning afzalliklari shundan iboratki, bir xil hajmdagi maydonda yerda boqilganga nisbatan 1,5 barobar bosh sonini ko'p ushlab, mos ravishda bosh soni

hisobiga parranda go'shtini ham ko'p olish mumkin. Lekin shu bilan birga yerda boqilganiga qaraganda katakda boqilgan broylerlar bir boshiga nisbatan kamroq tirik vazn olinishi va olingan 1 kg tirik vazn uchun ko'proq sarf-harajat qilinishi aniqlangan. Demak, broylerlarni yerda boqish uskunalari kataklarda boqish uskunalariga nisbatan 2 barobar arzon tushadi qalin to'shama broylerlarni yetishtirish eng muhim va har tomonlama mukammal o'zlashtirilgan texnologiya hisoblanadi. Boqilayotgan broyler jo'jalarining tagiga qalin to'shama uchun toza yog'och qipig'i, somon, maydalangan poxollar 8-10 sm qalinlikda ishlatiladi. To'shama harorati pol bilan bir xil bo'lishi (28—30°S) kerak. Agar to'shama bir tekisda yotqizilmagan bo'lsa, suv va ozuqaga bir tekis yotolmaganligi tufayli broyler jo'jalarining bir xil o'sishi kuzatilmaydi. To'shamalar ifloslanganda ular almashtiriladi. Parrandaxonada broyler jo'jalarini boqish zichligi 1 m² ga 12-14 boshni tashqil etadi. Jo'jalar 10-15 kunligigacha tana haroratini boshqara olmasligi sababli xonadagi xavo haroratini nazorat qilish kerak. Pol va to'shama harorati (me'yor 28-30°S) havo haroratiga o'xshab juda zarur ko'rsatkich, shuning uchun parrandaxonani oldindan isitish juda muhim hisoblanadi. Parrandaxona harorati va nisbiy namligini jo'jalarni keltirishdan 2 kun (48 soat) oldin barqarorlashtirish kerak bo'ladi. Binodagi havo harorati oziqa va suvning oldida jo'ja yelka balandligida o'lchanadi.

Parrandaxonada tavsiya etiladigan mikroiklim ko'rsatkichlari

Broyler jo'jalar yoshi, kun	Isitkich atrofidagi havo harorati°S	Binodagi havo harorati°S	Nisbiy namlik,%
1-5	34-33	26-24	60
6-10	32-30	23-22	60
13-20	29-25	22-21	60
21-30	23-22	21-20	60
31-45	23-22	19-11	60

Parrandaxona harorati va nisbiy namligini birinchi 5 kun davomida bir kunda 2 marta va undan keyin har kuni tekshirib turish tavsiya etiladi. Havo harorati va nisbiy namlikni o'lchash va mikroiklimni avtomatik tarzda nazorat qilish tizimi jo'jalar balandligida o'rnatiladi. Bundan tashqari elektron nazorat datchiklarni to'g'ri ishlayotganligini nazorat qilib turish uchun yana oddiy termometrlar ham o'rnatiladi. Havo harorati va nisbiy namlikni parrandaxonaning hamma maydonida doimiy ravishda nazorat qilib borish kerak. Jo'jalarni keltirishdan oldin yana bir bor suv va ozuqa idishlarining yetarliligi va parrandaxona bo'yicha bir tekisda tarqatilganligini nazoratdan o'tkazish kerak. Jo'jalar karton qutilarda qancha ko'p vaqt qolsalar, ular organizmining suvsizlanish darajasi shuncha kuchayadi. Bu holat jo'jalar orasida chiqim bo'lishiga sabab bo'ladi va tirik vazn o'sishining pasayishiga olib keladi. Parrandaxonaga olib kelingan jo'jalarni karton qutilardan to'shama ustiga extiyotkorlik bilan tez va bir tekisda qo'yiladi.

Jo'jalarning tinchlanishi va yangi sharoitga ko'nikishi uchun 1-2 soat vaqt beriladi. Shundan so'ng hamma jo'jalarda suv va ozuqaga yetishish imkoni mavjudligini nazorat qilib chiqiladi. Jo'jalarga toza ichimlik suvi berish va jo'jalarga qulay bo'lgan optimal balandlikdagi suvdonlarda suvga oson yetishish imkoniyati yaratilib berilishi kerak. Nippelli liniyalarni 12 bosh parrandaga 1 nippel hisobidan, qo'ng'iroq shaklidagi suvdonlarni 1000 bosh parrandaga 6 ta suv don hisobidan o'rnatish tavsiya etiladi. Bundan tashqari 1000 bosh parrandaga 6 ta qo'shimcha mini-suvdon (avtosuvdon) lar qo'yiladi. Jo'jalarga granulalangan boyitilgan omuxta yemni 100 bosh jo'ja xisobiga 1 dona 10 kg lik yem idishiga solib beriladi. Bir boshga oziqlantirish fronti 5 sm va suv ichish fronti 1 sm. ni tashqil etishi kerak.

Nisbiy namlik. Broyler parrandaxonasida nisbiy namlikni har kuni nazorat qilib turish kerak (me'yor 60%). Agar nisbiy namlik 50 foizdan tushib ketsa, atrof-muxit havosi quruq va chang bo'ladi, bunda jo'jalar organizmi namlikni yuqotishni boshlaydi va nafas organlari kasalliklari kelib chiqish xavfi tug'iladi. Bu ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatda tezlik bilan havo nisbiy namligini ko'tarish tavsiya etiladi. Agar parrandaxonada yuqori bosimli suvpuvkagich (tuman hosil qiluvchi) o'rnatilgan bo'lsa, jo'jalarni boqishni boshlang'ich davrida havo namligini ko'tarish uchun yilning issiq davrlarida o'sha uskunadan foydalanish mumkin. Jo'jalarni o'sish jarayonida nisbiy namlik miqdori pasaytirib boriladi. 18 kunlik yoshidan keyin nisbiy namlik yuqori (70%) bo'lsa, to'shamani namlanish holatlari kuzatiladi. Broylerlarni tirik vazni o'sishi bilan birga nisbiy namlikni ventilyatsiya tizimi va isitish uskunlari orqali nazorat qilib borish mumkin. Broyler jo'jalari o'stirish davrining 20-kunidan so'ng katta miqdorda metabolik issiqlik chiqaradi. Shu sababli jo'jalarni 21- kunligidan boshlab parrandaxona haroratini 20-21 °S da ushlab, broylerlar vaznini optimal o'sishiga imkon yaratadi.

Parrandaxona harorati va havo harakatini parrandalar xulqi orqali nazorat qilish. Harorat juda yuqori bo'lsa - jo'jalar chiyillashmaydi, boshi va qanotlarini osiltirib pastroq tutishadi, nafas olishi og'irlashadi. Jo'jalar isitish uskunasi uzoqroq ketishga harakat qiladi.

Harorat juda past bo'lsa - jo'jalar isitish uskunasi yaqiniga to'dalanishib olishadi, bir-birining ustiga chiqadi, qattiq chiyillashib bezovtalanadi.

Yelvizak bo'lsa - jo'jalar bir tomonga to'planishib oladi. Bunda haroratni o'rganib chiqish kerak (yelvizak ta'siri, parrandaxona bir tekis yoritilganligi, shovqinni ekstremal darajada balandligi va boshqalar). Demak, *jo'jalar xulqidan indikator sifatida foydalanish mumkin.*

Jo'jalarni o'stirishning barcha bosqichida, jo'jalarni o'zini tutishi, xulqi ustidan nazorat o'rnatish kerak. Chunki jo'jalar tomonidan haroratni sezishi eng to'g'ri ko'rsatkich hisoblanadi. Agar parranda xulqi jo'jalarga juda sovuq yoki juda issiqligini ko'rsatib tursa, unda parrandaxona harorati kerakli tomonga o'zgartiriladi.

Parrandaxonada havo almashtirish (Ventilyatsiya).

Jo'jalarni parvarishlash jarayonida bino havosini yelvizaksiz almashtirib, tozalab turish muhim hisoblanadi. Parrandaxonani karbonat angidrid va ammiak

gazidan havo almashtirgich (ventilyatsiya) tizimi orqali tozalanadi. Jo'jalarni parrandaxonaga joylashtirilgandan boshlab ventilyatsiyani minimal ishlatish orqali tez-tez va muntazam interval vaqtda toza havo berib borishni tashkil etish tavsiya etiladi. Toza havo va normal haroratni jo'jalar balandligida bir me'yorda ta'minlab turish uchun ichki ventilyatorlardan foydalanish mumkin. Yosh jo'jalar tanasi tez sovib ketishga moyildir, shuning uchun haqiqiy havo harakati (oqimi, tezligi) pol yuzasida 0,15 m/sek yoki undan past bo'lishi kerak. Ventilyatsiya tizimining asosan 2 xili mavjud: tabiiy va avtomatik. *Tabiiy (ochiq parrandaxonalar) ventilyatsiya:*

- mexanik aralashuvsiz;
- mexanik aralashuv bilan turlariga bo'linadi.

Avtomatik (parranda yetishtirish sharoitini nazorat qiluvchi) ventilyatsiya:

- minimal;
- oraliq;
- tunnelli;
- bug'lantirish pannellaridan foydalanish;
- tuman hosil qiluvchi turlariga bo'linadi.

Tabiiy ventilyatsiya ochiq parrandaxonalarda qo'llaniladi va parda, eshik, shlyuz yoki darvozalar bilan jixozlangan bo'ladi. Tabiiy ventilyatsiya pardani ochilishi bilan ishga tushiriladi. Shuning uchun ventilyatsiyani bu turini pardali ventilyatsiya ham deb atashadi. Tabiiy ventilyatsiya boqish texnologiyasining qoniqarli sharoitlarini ushlab turish uchun kunning 24 soat vaqtda doimiy nazorat qilib boriladi. Parrandaxonaning havo harorati, nisbiy namlik, yelvizak kuchi va yunalishini me'yorlashtirib turish uchun doim pardalar bilan ishlash va sharoitni nazorat qilib turish kerak.

Avtomatik ventilyatsiya parranda yetishtirish sharoitini nazorat qiluvchi eng optimal ventilyatsiya tizimi hisoblanadi. Avtomatik ventilyatsiya tizimi elektr ventilatorlar orqali parrandaxonadagi havoni tashqariga chiqarib tashlaydi, natijada ichkaridagi havoning tashqaridagiga nisbatan bosimi kamayadi va tashqaridan toza havoni ichkariga darchalar orqali so'rilib kirishiga sababchi bo'ladi. Broyler jo'jalar o'sgani sari ventilyatsiya yanada intensiv bo'lishi kerak. Kerak bo'lganda foydalanish uchun qo'shimcha ravishda ventilatorlar o'rnatish zarur. Bu sohada kamchilikni paydo bo'lganini o'z vaqtida bilish uchun parrandaxona markaziga yoki bir nechta nuqtasiga parranda balandligida datchiklar yoki termostatlar o'rnatiladi.

Minimal ventilyatsiya tizimi - yilning salqinroq mavsumida qo'llaniladi. Minimal ventilyatsiyani qo'llashdan maqsad parrandaxonadagi havo bilan birga ortiqcha namlik va gaz chiqindilarini chiqarib tashlash va tashqaridan toza havo yetkazib berishdir. Tashqaridagi ob - havoni qanday bo'lishidan qat'iy nazar parrandaxona ma'lum vaqt ventilyatsiya qilinib turiladi. Tashqaridan kirayotgan havo ichkaridagi havo bilan bir tekis aralashishi uchun barcha darchalardan bir tekisda toza havo kirishini ta'minlash lozim.

Tunnelli ventilyatsiya tizimi - havo almashinuvini maksimal darajada ta'minlaydi va havoni sovish effektini yaratadi. Har biri 122 sm. li ventilatorlar

shamol orqali 4 haftadan yosh parrandaga 1,4°S ga, 4 haftadan yuqori yoshdagi parrandaga 0,7°S ga havoni sovutib beradi. Havo oqimi harakati kuchaytirilsa, parrandaning haroratni sezish qobiliyati pasayadi. Katta yoshdagi parrandaga nisbatan yosh parranda harorat pasayishini 2 barobar tez sezadi. Shunday qilib tashqi harorat 32°S bo'lganda, 4 haftalik parranda uchun 1 m/sek tezlikdagi havo harakati 29°S havo haroratini sezish imkonini beradi. Agar havo tezligi 2,5 m/sekga ko'tarilsa, mana shu parranda 22°S ni sezadi. Yoshi kattaroq paranda (7 haftalik) harorat pasayishini sezishi keltirilgan misoldan 2 barobar ko'proq bo'ladi.

Bug'lantirish orqali sovutish tizimi - tunnelli ventilyatsiyaning yuqori tezlikdagi havo oqimiga bug'lantirish orqali sovutish tizimi qo'shilsa juda mos keladi. Bug'lantirib sovutish usuli yilning jazirama issiq kunlari parvarishlash sharoitlarini yaxshilash va tunnelli ventilyatsiyani ta'sirini kuchaytirishga yordam beradi. Bug'lantirib sovutish usuli suvni bug'lantirish orqali parrandaxona haroratini tushirishga qaratilgan. Bug'lantirib sovutishga 3 holat ta'sir ko'rsatadi:

- tashqi havo harorati;
- tashqi havo nisbiy namligi (NN);
- bug'lanish samaradorligi.

Bug'lantirish orqali sovutish tizimining 2 ta asosiy turi mavjud: *bug'lantirish panellari va tunelli ventilyatsiya yordamida hamda tuman hosil qilish va mayda dispersli purkash.*

Bug'lantirish panellari va tunelli ventilyatsiya tizimi - tashqi havo namlangan selluloza panellaridan ichkariga o'tishi orqali sovutib beriladi. Agar ichkaridagi havo harorati 29°S dan yuqori bo'lsa, bug'lantirish paneli va havo oqimi tezligi birgalikda ikki xissa samara berishi sababli mikroiqlimni nazorat qilib turish imkonini beradi. *Tuman hosil qilish va mayda dispereli purkash-* tashqi xavoni nasos yordamida tuman xosil qiluvchi forsunkalar orqali ichkariga purkab havoni sovutib beradi. Bug'lanishni tezlatish maqsadida tuman hosil qiluvchi forsunkalar darchalar orqali ichkariga toza havo kiruvchi joylarga o'rnatiladi. Qo'shimcha ravishda parrandaxona ichkarisiga yana kerakli miqdorda forsunkalar o'rnatiladi.

Broylerlar uchun yorug'lik. Yorug'likni tug'ri belgilash, parrandani mahsuldorligiga, sog'ligiga, modda almashinuvini intensivligiga, fiziologiyasiga va xulqiga ta'sir o'tkazadi. Yorug'lik dasturi birinchi 7 kun 23 soat yorug'lik va 1 soat qorong'ulikdan iborat bo'lishi kerak. Bu avvalom bor ozuqani to'lik iste'mol qilish imkonini beradi. Yorug'likni oldindan qisqartirish ozuqa iste'moli aktivligini qisqartiradi va 7 kunlik yoshida tirik vazn ko'rsatkichlari yomonlashadi. Birinchi 7 kun jo'jalarga yangi sharoitga o'rganish va oziqlanish hamda suv ichish jarayonini stimulyatsiya qilish uchun kuniga 23 soat davomida 30-40 luks intensivlikdagi yorug'lik tavsiya etiladi. 0-7 kunlik yoshida yorug'lik intensivligi 30-400 luks va 7 kundan keyin 5-10 luks bo'lsa oziqlanish va o'sish jarayonlari faollashadi. Yorug'lik intensivligi parrandaxona yuzasi bo'yicha bir xil bo'lishi kerak, chiroqlar ustidagi reflektorlar yorug'likni parrandaxona bo'yicha bir tekis tarqalishini ta'minlaydi.

Veterinariya chora-tadbirlari. Parrandalarning yuqumli kasalliklariga qarshi veterinariya profilaktik chora-tadbirlariga - bu parrandaxonalarni va uning xududini deratizatsiya, dezinseksiya va dezinfeksiya qilish va binoni ma'lum muddatga, ya'ni 20-25 kunga sanatsiyaga qo'yish kiradi. Bir vaqtning o'zida bir xil yoshdagi parrandalar bilan binoni to'ldirish, o'z vaqtida immunizatsiya qilish va invazion kasalliklarga qarshi muntazam profilaktik tadbirlar olib borish, ayniqsa koksidiy kasalligiga qarshi kurashish uchun jo'jalarga 1 kunligidan boshlab, suyish vaqtiga 5 kun qolguniga qadar koksidiostatik preparatlar - Amprolium 25-30%, Amprolium plyus, TOLTRACOX 5%, INTRACOX ORAL 2,5% va boshqa preparatlar berib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Zayniddinovich, Z. R. (2022). REVIEW OF THE LITERATURE ON SEPSIS IN CALVES AND MEASURES TO PREVENT IT. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 3(1), 1-4.
2. Oglu, K. S. I., & Qizi, K. B. A. (2022). MEASURES FOR THE PREVENTION OF DISEASES CAUSED BY DISORDERS OF BEE NUTRITION AND FEEDING CONDITIONS. Academia Globe: Inderscience Research, 3(3), 1-4.
3. Oglu, K. S. I., Oglu, Y. O. A., & Oglu, J. S. H. (2021). Viral hemorrhagic fever of rabbits ("hemorrhagic pneumonia", "necrotic hepatitis").
4. Subxonovich, H. P., Ergashevna, G. M., & Oglu, K. S. I. (2021). Distribution of helminthosis diseases of one-hoed animals. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 880-883.
5. Mahamadaliyeva, M. U., & Agamurodov, O. A. (2021). MEASURES FOR TREATMENT AND PREVENTION OF DISPEPS DISEASE IN CALVES. Ученый XXI века, (10 (81)), 12-14.
6. Nurmatovich, K. A., & Oglu, K. S. I. (2021). Effects of drugs on blood indicators in mixing chicken eimeriosis and pullorosis. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 615-617.
7. Mahamadaliyeva, M. U., Abduhalilova, G. I., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). BRUTSELLYOZ VA UNING LABORATORIYA DIAGNOSTIKASI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(15), 41-47.
8. Oglu, K. S. I., Zayniddinovich, Z. R., & Oglu, R. J. K. (2022). Review of the literature on sepsis in calves and measures to prevent it.
9. Худжамшукуров, А. Н. (2021). ТОВУҚ АСКАРИДИОЗИДА АСКАЗИН АНТИГЕЛЬМИНТИГИНИ ҚЎЛЛАШ НАТИЖАЛАРИ. Интернаука, (8-3), 44-46.
10. Davlatov, R. (2021). Бройлер жўжаларида айрим антибиотикларнинг самарадорлик кўрсаткичлари. Scienceweb academic papers collection.
11. G'oyipova, M. T. E., Xo'jaxonov, S., & Avliyoqulov, M. (2022). VETERINARIYA SOHASINING CHORVACHILIKNI

- RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNINI VA TAMOYILLARI. Journal of Integrated Education and Research, 1(4), 238-240.
12. G'aniyev, S. S., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). VETERINARIYA LABORATORIYALARIDA SUTNI VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZADAN O'TKAZISH TALABLARI. Scientific Impulse, 1(8), 586-592.
 13. Ibrohimov, U. D., Maxamadaliyeva, M. U., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). OTLARDA OSHQOZON-ICHAK TIZIMI PATOLOGIYASI. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 32-39.
 14. Berdiyevich, D. R. (2023). METHODS OF DIAGNOSIS OF CHICKEN COLIBACTERIOSIS. AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 9-13.
 15. Abduhalilova, G. I., Makhamadaliyeva, M. U., & Khojakhanov, S. I. (2023). FISH BRANCHIOMYCOSIS PREVENTION MEASURES. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 247-252.
 16. БУЗИЛИШЛАРИ, Ё. Улуков Бехзод Каромат ўғли магистранти, Хўжахонов Шохрузхон Идиришхўжа ўғли магистранти, Жуманазарова Мадина Қахрамон қизи.
 17. Davlatov, R. (2021). Товуқ колибактериозининг кимёвий профилактикасида антибиотикларнинг самарадорлиги. Scienceweb academic papers collection.
 18. Mengliyev, G. A. A. (2022). SOG'IN SIGIRLARDA MASTIT KASALLIGINI OLDINI OLIH BO'YICHA TAVSIYALAR. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(5), 42-48.
 19. Bahodirovich, E. N., & Akromovich, M. G. (2022, March). TREATMENTS FOR VIRAL AND BACTERIAL INFECTIONS IN NEWBORN CALVES. In E Conference Zone (pp. 91-94).
 20. Akromovich, M. G. (2022). EFFECTIVE TREATMENT AND PREVENTION OF MASTITIS IN DAIRY COWS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 312-316.
 21. Akromovich, M. G., & Qizi, K. O. I. (2021). Treatment of mastitis in cows.
 22. Soroka, N. M., Safarova, F. E., Akramova, F. D., Shakarboev, E. B., Azimov, D. A., Mengliyev, G. A., ... & Mamatiminov, S. K. (2014). Cestodes of cypriniformes fishes in the Waterbodies of the midstream of the river syrdarya. Біоресурси і природокористування, 6(3-4).
 23. Davlatov, R. (2021). Бройлер жўжаларида айрим антибиотикларнинг самарадорлик кўрсаткичлари. Scienceweb academic papers collection.
 24. Davlatov, R. (2021). Товуқ колибактериозининг кимёвий профилактикасида антибиотикларнинг самарадорлиги. Scienceweb academic papers collection.
 25. R.B.Davlatov, X.S.Salimov, A.N.Xo'djamshukurov. "Parrandalar kasalliklari", o'quv qo'llanma, Samarqand-2018.

26. Davlatov R.B., Xudjamshukurov A.N., Rustasov B. "Parrandalar kasalliklari". Uslubiy qo'llanma. Samarqand 2017
27. X.S.Salimov, A.A.Qambarov. "Epizootologiya", darslik Toshkent 2016.
28. B.Bakirov N.B.Ro'ziqulov va boshqalar "Hayvonlar kasalliklari" (ma'lumotnoma)
29. R.B.Davlatov, Sh.N.Nasimov, X.B.Niyozov, Sh.A.Jabborov Sh.A.Xo'djamshukurov, X.A.Safarov. "Parranda kasalliklarini profilaktikasi va davolash bo'yicha tavsiyalar"
30. Давлатов, Р. Б. (2023). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИ (АДАБИЁТЛАР ШАРХИ). *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(26), 107-111.
31. Давлатов, Р. Б., & Бердиев, Х. Р. (2021). ТОВУҚ КОЛИБАКТЕРИОЗИНИНГ КИМЁПРОФИЛАКТИКАСИДА ОФЛОСАННИНГ САМАРАДОРЛИГИ. *Вестник Ветеринарии и Животноводства*, 1(1).
32. Davlatov, R. (2021). Товуқ эймериозининг кимёпрофилактикасида эймериостатикларнинг самарадорлиги. Scienceweb academic papers collection.